

VATANPARVARLIK VA QAHRAMONLIK ONTOLOGIK MAVJUDLIGINI IFODALASHDAGI O'RNI.

Djumaboev Jaloliddin Zayniddinovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Jangovar tayyorgarlik sikli katta
o'qituvchisi, dotsent, podpolkovnik*

Tel: +99899 001 11 09

MAQOLA MALUMOTI

ANOTATSIYA

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.07.2025

Revised: 20.07.2025

Accepted: 21.07.2025

*Inson ma'naviy borlig'i bir qator atributiv
xossalarga ega. Tafakkur, erkinlik, ijodkorlik,
inson ma'naviy borlig'ining ajralmas xossalari
bo'lib, ular inson hayoti va faoliyatiga turlicha
ta'sir ko'rsatishi yuzasidan so'z yuritiladi.*

KALIT SO'ZLAR:

*Vatanparvarlik,
qahramonlik, zardushtiylik,
ijtimoiy munosabat,
Jamiyat..*

Kirish: Inson to'g'risidagi qarashlarni eramizdan avvalgi VII—VI asrlarda O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, Eron va Turonda keng tarqalgan mifologik-diniy, diniy-falsafiy ta'limotlarda yaqqol ko'rish mumkin. Falsafiy unyoqarashning tarixiy shakllari insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo'lib, jamiyat rivojlanishining ma'naviy mezon sifatida namoyon bo'lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o'zlarining ijtimoiy hayotiga bo'lgan munosabati turli rivoyat va afsonalarda o'z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan. Yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurashda yaxshilikning mudom tantana qilishi mifologik dunyoqarashning gumanistik mazmunidan dalolat beradi.

O'zbek xalqi sivilizatsiyasi jarayonida yaratilgan rivoyat, afsona va boshqa janrlardagi og'zaki ijod namunalari millatimiz tarixda qanday ma'naviy qiyofaga ega bo'lganini hanuz ko'rsatib turadi. Ular bugungi kunda jahon ahlini hayratga solmoqda. Ana shunday

ta'limotlardan biri Zardushtiylik edi. Qadimiy merosimiz namunasi - «Avesto»da yaxshilik ramzi - Axuramazda va yomonlik timsoli - Axriman o'rtasidagi kurash tarixi misolida oxir-oqibatda ezgulik baribir g'alaba qozonadi, ya'ni yorug'lik zulmat ustidan g'alaba qiladi, degan g'oya asosiy o'rinni egallaydi va hayotbaxsh g'oyalar ilgari suriladi.

Zardushtiylik ta'limotiga Turonzaminning Xorazm o'lkasi qishloqlaridan birida tavallud topgan, o'z zamonasining yirik qomusiy olimi, shoir Zardusht—Spitamon asos solgan. U yoshligidan bilimga, ilmga chanqoqligi bilan tengdoshlardan ajralib turar edi. Yetti yoshidan o'n besh yoshigacha zamonasining bilimdonlaridan biri hisoblangan Barzin Kurasdan saboq oldiy Tabiatshunoslik, jamiyatshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslikka oid bilimlarni qunt bilan o'rgandi. Ayniqsa, Kalomi Bade', notiqlik san'atini, pahlavonlik, chavandozlik sirlarini bilib oldi. Sarkardalik, jang qilish malakalarini uzluksiz takomillashtirib bordi.

Zardusht xalq og'zaki ijodi, urf-odatlarini, rasm-rusumlarini o'rganib, axloq-odobga doir fikr-mulohazalarini jamlab, yagona to'plam holiga keltirdi. Uning diniy-falsafiy qarashlari «Avesto»ning qadimiy qismi «Gat» (she'riy madhiya) larda bayon qilingan.

Zardushtiylik ta'limotining asosiy qoidalari uning muqaddas kitobi «Avesto»da bayon etilgan. «Avesto» bir kunda yoki bir yilda vujudga kelgan emas, balki asrlar davomida to'ldirib, boyitib borilgan. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha «Avesto» eramizdan avvalgi VII—VI asrlardan tortib, milodning III—IV asrlarigacha bo'lgan barcha o'zgarishlarni o'zida qamrab olgan. «Avesto» iborasi «asos», «asosiy matn» degan ma'noni bildiradi.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana shunday kishilar mavjudligini e'tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. Shaxs erkinligi va tarixiy zarurat bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Mamlakatimizning taraqqiyot yo'lida paydo bo'lgan qiyinchilik va muammolar mohiyatini anglash shaxsni o'z bilimi va mahoratini oshirishga, yuksak g'oyalarga sodiq bo'lib yashash va ularni jadal amalga oshirishga undaydi.

Inson mohiyatini falsafiy bilish ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Inson falsafasi har bir yangi tarixiy davrda inson mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Insonga xos xususiyat va fazilatlarni bilish orqali inson o'zida shunday sifatlarni shakllantirishga intiladi. Bunday fazilatlar falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish va umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Aynan vatanparvarlik va qahramonlik bunday fazilatlar ko'rsatib beruvchi omillardan biri

hisoblanadi. Zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarini egallash orqali dunyoda ozod va obod jamiyat qurish vazifalari uyg'unligini ta'minlashga erishish butun ta'lim-tarbiya ishlarining bosh mezoni va uning oldida turgan muhim vazifadir.

Dunyoviy qarashlarga ko'ra, odamlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo'lib birlashishga ko'nikkan. Kishilar hayotiy tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat bo'lib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda o'zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma'naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergan.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so'z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qoldirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarisiz inson va jamiyat o'z mohiyatini yo'qotadi.

Jamiyat haqidagi qarashlar birdaniga paydo bo'lgan emas. Kishilarda dastlab jamiyat to'g'risida hayoliy mifologik qarashlar, undan keyin asta-sekin diniy qarashlar paydo bo'ladi. Diniy qarashlarga ko'ra, jamiyat xudo tomonidan yaratilgan bo'lib, u xudoning insonlarga bergan in'omidir. Jamiyatni diniy tushunishga ko'ra, jamiyatning mohiyatini, uning mavjudligi va taraqqiyotini ilohiy kuchlar, shaxsan xudo belgilaydi, jamiyatdagi har qanday hodisa va voqea xudoning irodasi bilan sodir bo'ladi.

Jamiyat nima? Insoniyat azal-azaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo'llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo'lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi³.

Aflotun («Davlat», «Qonunlar» va boshqa asarlarida) jamiyat to'g'risidagi idealistik ta'limotni keng rivojlantirgan. Etatik an'ana undan boshlanib, unga asosan jamiyat bilan davlatni aynan bir deb tushuntirishga harakat qilingan. Jamiyat rivojlanishining idealistik talqini keyinchalik Arastu asarlarida o'z aksini topdi («Siyosat», «Etika» va b.). U ijtimoiy

tuzumning uch bosqichini ko'rsatib berdi: a) oila; b) jamoa; v) davlat. Ularning hammasi bir-biri bilan ierarxik munosabatdadir. Jamoa – oilalar majmuasi; davlat esa jamoalar yig'indisidan iboratdir.

Jamiyatning bunday an'anaviy talqiniga Sharq mutafakkirlari ham o'z hissalarini qo'shganlar. Bunga Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Beruniyning «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig», Navoiyning «Payg'ambarlar va donishmandlar tarixi», Amir Temurning «Tuzuklari», A.Jomiyning «Iskandarning donishmandlik kitobi» va boshqa asarlarni misol qilib keltirishning o'zi kifoya qiladi. Bundan sharq mutafakkirlarining antik davr falsafasi vorislari ekanliklari ko'rinib turibdi. Masalan, Ibn Sinoning fikricha, jamiyat uch sinfga bo'linishi kerak: boshqaruvchilar, lashkar (harbiy), ishlab chiqaruvchilar. Bu esa, Afлотunning qarashlarini tasdiqlaydi.

Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi Hegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L. Feyerbax din bilan bog'lagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O. Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoqlama va xato ekanini ko'rsatdi.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra jamiyatlar taraqqiyotiga binoan, agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

Protagorning bosh tezisi: "Inson - barcha barcha narsalarning mezoni, mavjud bo'lgan narsalarning ham, mavjud bo'lmagan narsalarning ham"²¹. Bu tezisning mohiyatini tushunish uchun yuqorida qayd etilgan relyativizm isbotiga yana bir marta murojaat qilish lozim bo'ladi. Xususan, Platon Protagor tezisini quyidagicha tavsiflaydi: narsalarning mohiyati har bir kishi uchun alohidadir, demak narsani men qanday tasavvur qilsam, u men

uchun shunday bo'ladi; sen qanday tasavvur qilsang, sen uchun u shunday bo'ladi. Platon buni shunday misol orqali tushuntiradi: Ba'zi hollarda esayotgan bitta shamoldan kimdir sovg'otadi, kimdir sovg'atmaydi. Ya'ni, bitta kishi uchun shamol sovuq, boshqasi uchun unday emas. Qanday tuyulsa, shunday seziladi. Shu asosda, shamol o'z holicha sovuqmi yoki kimgadir nisbatan sovuqmi, degan savol tug'iladi. Bu relyativizmning birinchi isboti. keladi va mavjud. Ana shuning uchun ham shamol o'z holicha sovuqmi yoki yo'qmi degan savol, xuddi shamol mavjudmi degan savol singari, ma'nosizdir. Chunki u bir kishi uchun shamol, boshqasi uchun u emas, bittasini chayqaltiradi, boshqasi uni sezmaydi. Inson ijodkorligi, erkinligi insoniyatga faqat ijobiy natija emas, salbiy oqibatlar ham keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu natija insonning hayotiy prinsiplari, qadriyat mo'ljallariga bog'liqdir.

Inson tafakkuri bugun va kelajakni bir-biri bilan bog'lovchi hodisadir, chunki inson bugungi kunga qarab kelajakni tasavvur eta oladi, bugun borliqda mavjud holatlar, belgilar asosida kelajakni bashorat qiladi. Buning natijasida insonda o'z-o'zini himoyalash imkoniyati paydo bo'ladi.

Xulosa: Inson murakkab va ochiq sistema ekan, ochiq va murakkab sistemalarga xos bo'lgan barqarorlik va beqarorlik holatlari insonga ham xosdir. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi, jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Beqarorlik holatida jamiyatda va inson ma'naviy borlig'ida yetilib kelgan muammolar ko'zga tashlana boshlaydi. Lekin ushbu holatga odatiy hol, taraqqiyotning normal harakati sifatida qarash, sinergetikaning e'tirofi hisoblanadi. Barqarorlik va beqarorlik doimiy ravishda dialektik aloqadorlikda mavjud bo'ladi. Tizim abadiy barqarorlikda yoki abadiy beqarorlik holatida ham bo'lishi mumkin emas, chunki barqarorlik va beqarorlik elementlarining o'zaro aloqadorligi, taraqqiyotning ichki manbai, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1 Sharipov M. Falsafa tarixi (kadimgi sharh va Fap6 falsafasi). - Toshkent: Universitet, 2017. - B. 124.

2. O'sha yerda. - B. 125. Ikkinchi isbot: hech bir narsa o'z holicha vujudga kelmaydi va mavjud bo'lmaydi, u faqat boshqa narsaga nisbatangina vujudga

3. Sharipov M. Falsafa tarixi (kadimgi shark va Fap6 falsafasi). - Toshkent: Universitet, 2017. - B. 126.

4. Aliev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Ma'naviyat, 2000. – 630 b.

5. Aliqulov X. Gumanistik meros va shaxs ma'naviy kamoloti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 56 b.

6. Ahmedov M., Shoumarov O. Vatan mahalladan boshlanadi. Hayot va iqqisod. 1992.

7. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviyaxloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish. — T., «Fan», 1995.

